Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosiga bag’ishlangan matbuot anjumani o’tkazildi

Bugun, 27-aprel kuni O’zbekiston Milliy matbuot markazida Fanlar akademiyasi olimlari tomonidan yaratilayotgan qishloq xo’jaligi ekinlari - paxta va g’alla navlarining amaliyotga joriy qilinishi, natijadorligi, shu yo’nalishda amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlarga bag’ishlangan matbuot anjumani o’tkazildi. Unda FA vitse-prezidenti, akademik Baxtiyar Ibragimov, Genetika va o’simliklar eksperimental biologiyasi instituti direktori Abdujalil Narimanov, Genomika va bioinformatika markazi direktori Zabardast Bo’riyev hamda mazkur yo’nalishdagi yetakchi olimlar ishtirok etdi.

https://mar
t.me/markaz16uz
https://ma
https:/
e/markaz16
ru
https:/
ne/markaz16
l.ru
https:

ttps://markaz16.uz
kaz16uz @ uzmmm16@mail
16@mail.ru
ttps://markaz16.uz
kaz16uz @ uzmmm16@
6@mail.ru
16@mail.ru
.uz
nm16@mail.ru
arkaz16
https://ma
z
16@mail.ru

Matbuot anjumanida FA tizimida qishloq xo’jaligi ekinlari, xususan, bug’doy va paxtaning yangi, istiqbolli navlarini yaratish va bu boradagi ishlarga to’xtalib o’tildi.

Jumladan, Fanlar akademiyasi Genetika va o’simliklar eksperimental biologiyasi instituti tomonidan 1992-2022-yilllarda **53 ta g’o’za, 5 ta bug’doy va 6 ta soya navlari** yaratilgan. Masalan, Institut tomonidan yaratilgan “Marvarid”, “Kleystogam-2” ingichka tolali g’o’za navlari, “An-Boyovut-2”, “Kelajak”, “Yuksalish”, “Samara”, “Afsona”, “Zafar”, “Gulshan” o’rta tolali g’o’za navlarini qishloq xo’jaligi, to’qimachilik sohalarida qo’llash mumkin.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash sohasida bug’doy va soyaning navlari mahalliy sharoitlarga mos, ozuqabobligi va tezpisharlik jihatlaridan ustunlikka ega va 1000-1500 ga yerga ekilib kelinmoqda.

Bugungi kunda yaratilgan g’o’za navlari **34 ming ga** yerda, bug’doy navlari **1000 ga** yerda, soya navlari **5 ga** yerda ekilib kelinmoqda.

Shuningdek, Fanlar akademiyasi Genomika va bioinformatika markazi tomonidan 2012-2022-yilllarda **15 ta g’o’za, va 1 ta bug’doy navlari** yaratilgan. Tola sifati yaxshilangan **15 ta o’rta tolali g’o’za navlari** tekstil sohalarida qo’llash mumkin. “Porloq” va “Ravnaq” navlarning tola uzunligi va pishiqligi yuqoriligi, turli abiotik ta’sirlarga chidamliligi, tola uzunligi va pishiqligi qancha yuqori bo’lsa ip-kalava olish foizi yuqori bo’ladi.

Ilk bor zamonaviy genetik injeneriya uslublari (RNK interferentsiya) asosida **9 ta g’o’za, 1 ta bug’doy navlari** yaratilib qishloq xo’jaligiga tadbiq qilindi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash sohasida bug’doy navi hosildorligi jihatlaridan ustunlikka ega va **2 ga** yerga (dastlabki urug’larini ko’paytirish uchun) ekilib kelinmoqda.

Bugungi kunda yaratilgan g’o’za navlari **30 ming ga** yerda, bug’doy navlari **2 ga** yerda ekilib kelinmoqda.

Anjumanda Genetika va o’simliklar eksperimental biologiyasi instituti olimlari tomonidan yaratilgan soyaning yangi navlari haqida ham ma’lumot berildi.